

**AMERIKA IMO-ISHORA TILINING UMUMIY GRAMMATIK  
XUSUSIYATLARI**

**Saydaliyeva Mahliyo Ulug‘bek qizi,**  
*Qo‘qon davlat universiteti o‘qituvchisi*  
*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*  
email: [mahliyosaydaliyeva98@gmail.com](mailto:mahliyosaydaliyeva98@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18903461>

**Annotatsiya:** Amerika imo-ishora tili murakkab va boy grammatik tizimga ega. Har qanday tilning og‘zaki shakli kabi u ham lingvistik tizim sifatida to‘liq shakllangan. Faqat og‘zaki nutqdan farqli ravishda ko‘rish va ishora qilish (vizual-gestual) xususiyatiga ega. So‘nggi davrda olib borilayotgan tadqiqotlarda amerika imo-ishora tilining fonologik, morfologik va sintaktik jihatlari keng doirada o‘rganilmoqda. Amerika imo-ishora tili grammatik hodisa sifatida qo‘l bilan ifodalanadigan va qo‘lsiz amalga oshiriladigan harakatlarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida ifodalangan ma‘nolar tizimi sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur maqolada ushbu tilning grammatik xususiyatlariga umumiy ma‘noda to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Imo-ishora tili, visual, qo‘l joylashuvi, dublikatsiya, qo‘l harakatisiz amalga oshiriladigan.

**Annotation:** American Sign Language has a complex and rich grammatical system. Like the oral form of any language, it has been fully formed as a linguistic system. Unlike only oral speech, it has the property of seeing and gesturing (visual-gestural). In recent research, the phonological, morphological, and syntactic aspects of American sign language are being widely studied. American sign language is interpreted as a grammatical phenomenon as a system of meanings expressed as a result of the combination of actions performed by the hand and without it. In this article, the grammatical features of this language are discussed in a general sense.

**Keywords:** Sign language, visual, hand placement, duplication, performed without hand movement.

**Аннотация:** Американский язык жестов имеет сложную и богатую грамматическую систему. Как и любая устная форма языка, он полностью сформировался как лингвистическая система. Только в отличие от устной речи он обладает способностью видеть и жестикулировать (визуально-гестуальным). В последние годы широко изучаются фонологические, морфологические и синтаксические аспекты американского языка жестов. Американский язык жестов интерпретируется как грамматическое явление как система значений, выраженных в результате взаимной гармонии действий, выполняемых рукой и без нее. В данной статье рассматриваются грамматические особенности этого языка в общем смысле.

**Ключевые слова:** Язык жестов, визуальный, расположение руки, дублирование, выполняемое без движения руки.

Tilshunoslar tomonidan imo-ishora tilini alohida muammo sifatida o‘rganilishiga sabab, uning maxsus ifoda shakliga egaligidir. Audio-verbal tillarda og‘zaki ma‘lumot shakli tovushlar vositasida amalga oshirilsa, vizual-gestual tillarda axborot imo-ishora orqali almashinadi. Ya‘ni qo‘l harakatlari, yuz ifodasi, tana holatidan foydalaniladi. Biroq bu ikki til shakllari turli ifoda usuliga ega bo‘lsa-da,

ularning maqsadi bir xil. Axborot almashishdir. Shuningdek, ularning qabul qilinish jarayoni ya'ni kognitiv asosi ham bir xil sanaladi. Aynan shunday farqli jihatlar va ularning o'xshashliklari tilshunoslar uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Imo-ishora tillarini o'rganish orqali olimlar tilning mohiyati faqat tovushlar vositasida emas, balki ongda shakllangan mavhum lingvistik tizim ko'rinishida ham aks etishi dalillaydi.

Imo-ishora tili tovushga asoslangan og'zaki muloqotdek axborot almashishga xizmat qiladi. Bunda axborot uzatish ham bir xil vaqt davomiyligida sodir bo'ladi. Bu Bellugi va Fischer tadqiqotlarida aniqlangan [Fischer, 1974]. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ikki muloqot shaklida ham ma'lumot bir xil vaqt davomiyligida uzatiladi. Taxminan har 1-2 soniya oralig'ida bir fikr ya'ni propozitsiya suhbatdoshga yetkaziladi. Shuningdek, tadqiqotchilar ma'lumotni uzatish tezligi sun'iy ravishda oshirilganda ya'ni nutq ham, imo-ishora tili ham odatdagi tezlikdan 2,5-3 baravar tezlashtirilganda, ularni tushunish qiyinlasha boshlagan. Bu holat ikkala til uchun ham bir xil vaqt nuqtasida yuz bergan. Mazkur tadqiqot natijalariga ta'yangan holda Emmorey nutqni tushunish imkoniyatining yuqori chegarasi mavjud bo'lib, u tilning qaysi shaklda bo'lishidan qat'iy nazar bir xil ekanini ta'lidlaydi [Emmorey, 1995]. Bu chegara til turiga emas, balki inson miyasi imkoniyatlariga bog'liq. Bu esa har ikki til shaklida ham bir xil kognitiv asos yotganini dalillaydi. Demak, imo-ishora tili tovushga asoslangan og'zaki nutqdek teng maqomga ega.

Amerika imo-ishora tilining fonologik tizimi besh asosiy tana harakatini o'z ichiga oladi. Ular qo'l shakli, qo'l harakati, qo'l joylashuvi, kaft yo'nalishi va qo'lsiz bajariladigan harakatlardir. Ushbu harakatlar tovush orqali ifodalangan nutqqa o'xshash bo'lib, fonemalar o'rnini imo-ishora egallaydi. Eshitish qobiliyati cheklangan insonlarning amerika imo-ishora leksikasini idrok etish jarayoni imo-ishoralarning semantik va fonologik faollashuvini o'z ichiga oladi. Bu vizual ya'ni ko'rish faoliyatining faollashuvi bilan birga sodir bo'ladi [Fischer, 1975, 1978].

Morfologik jihatdan amerika imo-ishora tili tovush orqali ifodalangan nutq singari fleksiyalash, derivatsiya, qo'shma so'zlar va dublikatsiya jarayonlaridan foydalanadi. Kelishik, ko'plik va zamon fleksion vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, fe'llarda yo'nalish va kelishik shakllari makonni ifodalovchi ishoralar bilan belgilanadi. Otlar esa dublikatsiya ya'ni fe'l ma'nosini ifodalagan harakatning ikki marta takrorlash yo'li bilan hosil qilinadi. Amerika imo-ishora tilida muayyan qo'l shakllari va harakatlari orqali obyektning harakati, o'lchami, shakli va joylashuvini tasvirlanib, makon-zamonga aloqador va semantik axborotni yetkazishga xizmat qiladi.

Sintaktik jihatdan amerika imo-ishora tili nisbatan erkin so‘z tartibiga ega bo‘lsa-da, oddiy Obyekt-Subyekt-Fe‘l (OSV) modeli keng tarqalgan [ASL grammar guide]. Shu bilan birga, diskursga, suhbat mavzusiga bog‘liq holda so‘z tartibining ko‘plab variantlari qo‘llaniladi. Suhbat mavzusi va unga beriladigan izoh gap tartibi amerika imo-ishora tili sintaksisining muhim jihati. Bunda gapning pragmatikasiga asosiy e‘tibor qarfatiladi.

Amerika imo-ishora tili grammatikasining eng muhim o‘ziga xosliklaridan biri qo‘lsiz bajariladigan imo-ishoralarning mavjudligidir. Ular yuz ifodalari, bosh harakatlari va tana holatlarini o‘z ichiga oladi. Qo‘lsiz bajariladigan imo-ishoralarda nafaqat ekspressiv, balki muhim grammatik axborotni uzatishda asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, “ha/yo‘q” savollar ko‘pincha qoshlarning ko‘tarilishi bilan, so‘roq so‘zli savollar esa qoshlarning chimirilishi va boshning egilishi orqali ifodalanadi. Inkor ma‘nosi ko‘pincha boshni chayqash kabi qo‘lsiz bajariladigan imo-ishora belgilar bilan hamda ayrim holatlarda ular bilan birga qo‘l harakatlari bilan birga ifodalanadi. Qo‘lsiz bajariladigan imo-ishoralarda ravish yoki sifat vazifasini ham bajarib, qo‘l harakatlari ma‘nosini o‘zgartirishi mumkin. Amerika imo-ishora tili sintaksisining ierarxik tuzilishi qo‘l harakatlarning ta‘naning ma‘lum qismidagi harakatlariga bog‘liq holda ham aks etadi. Hatto kinoyani aniqlash jarayonida ham qo‘l harakati va qo‘lsiz bajariladigan harakatlarning birgalikda ishlatilishi zarur.

Amerika imo-ishora tilida qo‘l harakati va qo‘lsiz bajariladigan harakatlarning uyg‘unligi ma‘noning bir vaqtda ifodalanishini ko‘rsatadi. Bu xususiyat og‘zaki tillarga xos bo‘lgan ketma-ketlikdan tubdan farq qiladi. Amerika imo-ishora tilining leksik va grammatik tizimi asosan qo‘l va qo‘l panjalari harakatlariga tayanadi, harakatlarning tizimli o‘zgarishi esa turli grammatik xususiyatlarni aks ettiradi. Ongda vizual konversiya orqali, xususan imo-ishora tillarida, mavhum grammatik tizimlarni ongda qayta ishlash qobiliyati til o‘rganish asosini modalitetdan mustaqil ekanligini tasdiqlaydi. Ya‘ni til o‘rganish jismoniy qobiliyatlarga bog‘liq emas.

Amerika imo-ishora tili grammatikasining murakkabligi texnologik jihatdan ayniqsa imo-ishora tilini tanish va tarjima qilish tizimlarida ham imkoniyatlar, ham muammolarni yuzaga keltiradi. Ko‘plab tadqiqotlar asosan qo‘l harakatlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, qo‘lsiz bajariladigan harakatlarning e‘tibordan chetda qoldirilishi ma‘noning qisman yo‘qolishiga olib keladi. Hozirda qo‘l harakatlari va yuz ifodalarini kuzatish uchun taqiladigan inertsiyal va elektromiografik sensorlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, konvolyutsion neyron tarmoqlar va uzoq-qisqa muddatli xotira tarmoqlari kabi chuqur o‘rganish modellari tarjima sifatini oshirishda qo‘llanilmoqda. Imo-ishorani o‘rga ishda yuz ifodalarini aniqlash dolzarb tadqiqot

yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tanish tizimlarini takomillashtirish uchun yangi ma‘lumotlar to‘plamlari va xususiyatlarni ajratib olish usullari yaratilmoqda.

Xulosa qilganda, amerika imo-ishora tili o‘ziga xos fonologiya, morfologiya va sintaktik tizimga ega bo‘lgan, bir vaqtning o‘zida qo‘l harakatlari va qo‘lsiz amalga oshiriladigan ishoralarni uyg‘unlashtira oladigan tildir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fischer, S. Sign language and linguistic universals : paper presented at Actes du Colloque Franco-Allemand de grammaire Transformationnelle, Tubingen, 1974.
2. Emmorey K. Processing the dynamic visual-spatial morphology of signed languages // Morphological Aspects of Language Processing: Crosslinguistic Perspectives / ed. L. B. Feldman. - Hillsdale, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 1995. - P. 29-54.
3. Fischer, S. Influences on word order change in American Sign Language // Word Order and Word Order Change / ed. by C. Li. - Austin : University of Texas Press, 1975. - P. 1-25.
4. Fischer, S. Sign language and creoles // Understanding Language through Sign Language Research / ed. by P. Siple. - New York : Academic Press, 1978. - P. 309-331.
5. ASL Grammar Guide : elektron resurs / The Academic Center for Excellence. – 1 July 2023. – P. 1. 10 p. <https://germanna.edu/sites/default/files/2023-07/ASL%20Grammar%20Guide%20%28edit%207-24-23%29.pdf> (Murojaat sanasi: 31.01.2026)